


# NAMANGAN VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


(Davlat xizmatlari markazlari ma'lumotlar bazasi  
asosida shakllantirildi)



# Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)


2



Mamlakatimizdagi kabi, viloyatimizda ham qulay ishbiarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

## Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



# Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni

(tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha  
2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

3

23 426




Mas'uliyati cheklangan  
jamiyat

1 313



Oilaviy korxonona

148



Unitar korxonona

6 285



Xususiy korxonona

18



Aksiyadorlik jamiyati


429



Boshqa korxonalar

## Faoliyat ko'rsatayotgan korxonona va tashkilotlar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



■ 2021- y. ■ 2022- y.


# Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, 2022- yil yanvar-sentabr oylarida, birlikda)



## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni


(yanvar-sentabr oylarida)






## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)





Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2022- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra 1 403 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 172 taga yoki 1,1 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 1 313 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 137 taga yoki 1,1 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 256 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 37 taga yoki 87,4 foizni tashkil etganligini ko'rish mumkin.


## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni

(1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2022- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra 24 429 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 633 taga yoki 1,1 martaga oshganligini ko'rish mumkin.


Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 23 426 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 188 taga yoki 1,1 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 3 608 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 369 taga yoki 90,7 foizni tashkil etganini ko'rish mumkin.



# Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni

(2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra 309 tani tashkil etib, ulardan 304 tasi yoki 98,4 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 22 taga yoki 1,1 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatimizda 28 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 taga yoki 1,1 martaga oshgan.

## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- oktabr holatiga, birlikda)



# Namangan viloyatida MDH davlatlarining kapitali ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni

(2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)


8

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonona	xorijiy korxonona
Rossiya Federatsiyasi	65	49	16
Qozog'iston Respublikasi	13	7	6
Xitoy Xalq Respublikasi	54	28	26
Qirg'iz Respublikasi	9	7	2
Tojikiston Respublikasi	13	10	3
Turkiya Respublikasi	43	17	26
Hindiston Respublikasi	14	6	8
Janubiy Koreya Respublikasi	32	23	9
Singapur Respublikasi	4	2	2
Eron Islom Respublikasi	4	1	3



# Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonona	xorijiy korxonona
Namangan viloyati	304	184	120
Namangan shahri	103	55	48
Mingbuloq	7	3	4
Kosonsoy	31	22	9
Namangan	20	17	3
Norin	11	6	5
Pop	27	19	8
To'raqo'rg'on	14	8	6
Uychi	18	14	4
Uchqo'rg'on	10	5	5
Chortoq	25	13	12
Chust	24	14	10
Yangiqo'rg'on	14	8	6

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Namangan shahrida 103 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 33,9 %), Kosonsoy 31 ta (10,2 %), Pop 27 ta (8,9 %), Chortoq 25 ta (8,2 %), Chust 24 ta (7,9 %), Namangan 20 ta (6,6 %) ni tashkil etadi.

# Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2022- yil 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda (jami ro'yxatga olingan 37 604 ta yuridik shaxslarning) ulushi Namangan shahri (33,0 %), Chust (8,0 %), Namangan (6,7 %), Uychi (6,6 %), Uchqo'rg'on, Pop (6,3 %dan), To'raqo'rg'on, Kosonsoy (6,1 %dan), Chortoq (6,0%), Yangiqo'rg'on (5,3 %), Norin (5,1 %) hamda Mingbuloq (4,5 %) hissalariga to'g'ri keladi.

## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni


(2022- yil yanvar-sentabr oylarida, birlikda)

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda (yangi ro'yxatga olingan 4 298 ta yuridik shaxslarning), ulushi Namangan shahrida (31,3 %), Uchqo'rg'on (8,3 %), Chust (7,7 %), Chortoq (7,4 %), Norin (6,6 %), Namangan (6,2 %), Yangiqo'rg'on (6,1 %), To'raqo'rg'on (6,0 %), Uychi (5,9 %), Kosonsoy (5,3 %), Pop (5,2 %) hamda Mingbuloq (4,0 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.




# Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimidagi soni

(2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




## Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni

(2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




2022-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar hududlar kesimida taqsimlanganda (faoliyat ko'rsatayotgan 23 426 ta mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning) ulushi Namangan shahrida (36,2 %), Uychi (6,9 %), Chortoq (6,8 %), Pop (6,4 %), Kosonsoy (6,3 %), Namangan (6,1 %), Uchqo'rg'on (6,0 %), Chust (5,8 %), Norin (5,5 %), Yangiqo'rg'on (5,3 %), To'raqo'rg'on (5,0 %), Mingbuloq (3,7 %) tumanlari hissasiga tegishli.



2022-2026-yillarda rivojlanishning yettita ustuvor yo'nalishi bo'yicha mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning "Taraqqiyot strategiyasi"da 2026 yilgacha Xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb etish strategiyasini amalga oshirish muhim yo'nalishi - xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, viloyatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

# Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining hududlar bo'yicha soni


(2022- yilning yanvar-sentabr oylarida, birlikda)




2022- yilning yanvar-sentabr oylarida, yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar hududlar kesimida taqsimlanganda (yangi tashkil etilgan 256 ta oilaviy korxonalarining), ulushi Namangan shahri (36,3 %), To'raqo'rg'on (15,6 %), Yangiqo'rg'on (15,2 %), Namangan (7,0 %), Chortoq (6,7 %), Chust (3,9 %), Mingbuloq, Pop (3,1 %dan), Uychi (2,7 %), Norin, Kosonsoy (2,7 %dan), Uchqo'rg'on (1,6 %) tumanlari hissasiga tegishli.

## Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(2022- yilning yanvar-sentabr oylarida, birlikda)



O'tgan yilga nisbatan % da



## Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri** – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

**Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

**Kichik korxonalar va mikrofirmalar** – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275-son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.